





2021- yil yanvar-sentabr oylari uchun Namangan viloyatidagi qurilish ishlari



Joriy yilning yanvar-sentabr oylarida Namangan viloyatida jami **3906,0** mlrd. soʻmlik qurilish ishlari bajarilib, oʻsish surʻati oʻtgan yilning mos davriga nisbatan **109,4 %** ni tashkil etdi.




2021- yil yanvar- sentabr oylarida qurilish ishlari hajmining tarkibi, ulushi % da



Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxonalar va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi boʻyicha shakllanadi.

Maʼlumot uchun: qurilish ishlari hajmi bu – oʻz kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy taʼmirlash hamda boshqa pudrat qurilish ishlari natijasidir.



Qurilish ishlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda

2021- yil 1- oktabr holatiga ko'ra qurilish sohasida korxonalar va tashkilotlar soni **2308** tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan **322** taga oshdi.



Namangan viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan qurilish korxonalarini soni (birlikda)

	holatiga ko'ra:		Jamiga nisbatan ulushi % 01.09.2021
	01.10.2020- yil	01.10.2021- yil	
Namangan viloyati	2199	2630	100,0
Namangan sh.	756	846	32,2
tumanlar:			
Mingbuloq	82	80	3
Kosonsoy	281	283	10,8
Namangan	127	147	5,6
Norin	110	136	5,2
Pop	84	114	4,3
To'raqo'rg'on	95	117	4,4
Uychi	212	249	9,5
Uchqo'rg'on	139	176	6,7
Chortoq	159	181	6,9
Chust	167	193	7,3
Yangiqo'rg'on	96	108	4,1




Ma'lumot uchun: Viloyatdagi soni bo'yicha eng ko'p ulushga ega bo'lgan qurilish korxonalari Namangan shahri (32,2%), Kosonsoy tumani (10,8 %) va Uychi (9,5 %) tumanlarida, hamda eng kam ulushni Mingbuloq tumani (3,0 %), Yangiqo'rg'on tumani (4,1 %), Pop tumani (4,3 %), To'raqo'rg'on (4,4 %) tumanlarida qayd etildi.



Joriy yilning yanvar-sentabr oylarida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi **156,3** mlrd. so'mni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2020- yilning yanvar-sentabr oyiga nisbatan 166,8 mlrd. so'mga kamaygan bo'lib, 2020- yilning mos davriga 44,5 % ni tashkil etdi.




Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari



Ma'lumot uchun: Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng ko'p ulushi Namanagan shahri (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **60,3 %**i) ga to'g'ri keldi.



Qurilish ishlari umumiy hajmida kichik korxonalar va mikrofirmalarning ulushi



Kichik korxonalar va mikrofirmalar


- 2021- yil yanvar-sentabr
- 2020- yil yanvar-sentabr

Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 2021- yil yanvar-sentabr oyida qurilish ishlarini bajargan boshqa tashkilotlarga nisbatan oshganligi kuzatildi. Ular hissasiga jami qurilish ishlari hajmining **64,3 % ga** to'g'ri kelib, 2020- yilning yanvar-avgust oyi ko'rsatkichiga nisbatan **3,2 %** punktga ortdi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2020- yilning mos davriga nisbatan **115,7 %** ni tashkil etgan holda **2509,8** mlrd. so'm miqdorida qayd etildi.





Qurilish ishlari umumiy hajmida norasmiy sektorning ulushi



Norasmiy sektor hissasiga to'g'ri kelgan jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi **31,7 %** ni tashkil etdi yoki **1239,9** mlrd. so'm miqdorida qayd etildi. 2020- yilning yanvar-sentabr oyiga nisbatan **118,3 %** ni tashkil etdi.






Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari

Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami 147,9 mlrd. so'm yoki 2020- yilning yanvar-sentabr oyiga nisbatan 92,0 % qurilish ishlari bajarildi. Nodavlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan esa 3758,1 mlrd. so'm qurilish ishlari bajarilib, o'sish sur'ati 121,1 % ni tashkil etdi. Ularning viloyatdagi tutgan ulushi mos ravishda 2,4 % va 97,6 % ni tashkil etdi.

IQTSODIY FAOLIYAT TURLARI BO'YICHA QURILISH ISHLARI (mlrd. so'mda)





**Hududlar kesimida mulkchilik shakllari
bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari
2021- yil yanvar-sentabr oylarida**

	Qurilish ishlari hajmi, mlrd. so'm	Davlat mulki		Nodavlat mulk *	
		mlrd. so'm	ulushi % da	mlrd. so'm	ulushi % da
Namangan viloyati	3906,0	147,9	100,0	3758	100,0
Namangan sh.	1138,6	12,0	8,1	1094	29,1
tumanlar:					
Mingbuloq	138,9	7,5	5,1	112,9	3,0
Kosonsoy	312,5	13,2	8,9	333,9	8,9
Namangan	324,5	11,0	7,5	316,9	8,4
Norin	153,5	7,4	5,0	174,5	4,6
Pop	273,4	46,8	31,6	258,5	6,9
To'raqo'rg'on	225,6	8,4	5,7	208,4	5,5
Uychi	431,5	14,2	9,6	398,9	10,6
Uchqo'rg'on	221,7	6,3	4,2	218,9	5,8
Chortoq	257,4	6,2	4,2	234,5	6,2
Chust	213,8	7,4	5,0	220,5	5,9
Yangiqo'rg'on	214,6	7,5	5,1	186,2	5,0

*Hududlar bo'yicha taqsimlanmaydigan hajmni qo'shgan holda




Hududlar kesimida qurilish ishlari 2021- yil yanvar-sentabr oylarida

	Qurilish ishlari hajmi (mlrd. so'm)	O'sish sur'ati, % da	Umumiy hajmga nisbatan ulushi % da
Namangan viloyati	3906,0	109,4	100,0
Namangan sh.	1138,6	100,2	29,1
tumanlar:			
Mingbuloq	138,9	144,2	3,6
Kosonsoy	312,5	108,4	8,0
Namangan	324,5	109,4	8,3
Norin	153,5	110,7	3,9
Pop	273,4	108,1	7,0
To'raqo'rg'on	225,6	116,9	5,8
Uychi	431,5	109,5	11,0
Uchqo'rg'on	221,7	117,9	5,7
Chortoq	257,4	112,8	6,6
Chust	213,8	120,8	5,5
Yangiqo'rg'on	214,6	118,3	5,5

2021- yil yanvar-sentabr oylarida boshqa hududlarga nisbatan eng katta hajm Namangan shahar (1138,6 mlrd. so'm) Uychi (431,5 mlrd. so'm), Kosonsoy (312,5 mlrd. so'm) Namangan (324,5 mlrd. so'm), Chortoq (257,4 mlrd. so'm) tumanlarida qayd etildi.

2021- yilning yanvar-sentabr oylarida qurilish ishlarining umumiy hajmda hududlarning ulushi (umumiy hajmga nisbatan % da)



Namangan viloyati statistika boshqarmasi

Investitsiyalar va qurilish statistikasi bo'limi